

NAY ASBOBI

Sayfulloev Sanjar Sadulloyevich
Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san'atiga
ixtisoslashtirilgan maktab internati o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada "nay" milliy cholg'u asbobining tuzilishi va ijro texnikasi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Nayning O'zbek milliy musiqa madaniyatidagi o'rni, uning ijrochiligi va amaliyoti, shuningdek, yetuk ustalar tomonidan yaratib kelingan nusxalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududidagi nay ijrochiligining rivoji haqida yoritiladi. Ushbu tadqiqot "nay" asbobining milliy madaniyatimizdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Milliy cholg'u, nay, antik madaniyat, marosimlar, mis nay, g'ovak nay, yakkanavoz, jo'rnavoz;

Kirish

O'zbek musiqasi o'zining judayam boy tarixi va qadimiy topilmalari bilan hali hanuzgacha ko'plab xalqlarni lol qoldirib kelmoqda, IV-VII asarlargacha bo'lgan davr madaniyat va san'at turlarining jumladan musiqasining, yuqori darajada rivojlanganini ifodalaydi.

Qadimiy Markaziy Osiyodagi antik madaniyatining ko'pgina cholg'u asboblari(nay,ud,doira) kabilar sof mahalliy hususiyati bilan mavjudligini ko'rsatib kelgan. Musiqa san'atining tarixiy shakllanish jarayoni dastlab tabiat atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Xususan musiqa san'atining takomillashuvi shaharlar madaniy hayotining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib uning ildizlarini esa, eramazdan avvalgi 2-ming yillik o'rnini birinchi ming yillikning boshlanishiga borib taqaladi. Musiqa san'atning barcha ildizlari qadimiy yillarga borib taqalar ekan, bunda xulosa qilish mumkinki, o'sha davrlarda, mahalliy aholining turmush tarzidagi turli xil diniy marosimlar, bayramlar va bundan tashqari harbiy harakatlarini ifodalash maqsadida sekin-asta musiqiy cholg'ular o'ylab topila boshlagan.

Xususan nay cholg'usining kelib chiqishi, Sopol nay, Qo'shmayli alvos, G'ajir nay, Bulamon kabi asboblarga borib taqaladi. Baqtriyaning qadimgi tarixi Sangin shahari xarobalaridan topilgan Saroy mehrobidagi qo'sh nayli musiqa asbobi (Alvos)ni chalib turgan go'zallik, nafosat, suv, Nabotot, ilohasi hisoblangan Silena Marsiya haykali ham, qadim zamonlardan boshlab ushbu hududlarda musiqa madaniyati qanchalik darajada rivojlanganini ko'rsatib beradi. Shuningdek, Ibodatxona xarobalaridan bir-biriga ulangan suyaklari hamda Gilli qotishmalaridan yasalgan puflab chalinadigan sozlari ham topilgan.

Asosiy qism

Nayning tuzilishi quyidagicha: u bir uchi tiqin bilan yopilgan uzun trubkadan iborat bo'lib, ushbu qismga yaqin joyda puflanadigan teshik joylashgan. Pastki qismida esa 6 ta barmoq teshiklari mavjud bo'lib, ular orqali turli tovushlar hosil qilinadi. Nayning diametri odatda 20-30 mm, uzunligi esa 450-520 mm atrofida bo'ladi.

Nayning ovoz diapazoni 2,5 oktavani tashkil etadi va u diatonik tovush qatoriga ega. Kuy ijro etishda nafas bosimi va barmoq teshiklarini turli usullar bilan ochib-yopib, tovushlarni o'zgartirish mumkin. Nay ko'pincha milliy ansambllar va orkestrlar tarkibida yetakchi cholg'u asbobi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, yakka holda ham ijro etiladi.

Nayda xalq lirik qo'shiqlari (doynlar) va raqs pyesalari ijro etiladi. Mazkur ijrochilari G.Zamfir (Ruminiya), V.Lovu. P.Zakariya, B.Rudenko, G.Mestya (Moldava) hisoblanadi. Nay cholg'usi nafaqat O'zbekiston va Tojikistonda balki Beyratda, Mangoliya Respublikasi, Xitoyda ham keng tarqalgan. Bu cholg'u turli nomlarda O'zbekiston va Tojikistonda nay nomi bilan, Beyrat va Mangoliyada limba, Xitoyda esa li nomi bilan yuritiladi. Hozirgi paytga kelib esa, nay sozi ansambl, orkestrlarda ham o'zining o'rniga ega. Ovoz diapazoni kengligi jihatidan xalq kuylarida, maqomlarda ansambllarda ko'proq yetakchi vazifani bajaradi. Turlicha puflash yo'li bilan esa baland-past tovushlar chiqariladi. Hozirda o'zbek milliy cholg'u asboblari bo'lgan nayning: yog'och nay, mis nay va g'ovak nay kabi turlarga bo'linadi. Ma'lumot o'rnida aytishim joizki XIX asrning ikkinchi yarmida Avgustda Feydorovich Eyxgan (1844-yil tug'ilgan) o'zbek Xalq cholg'ulari toplagan, surnayni qamish puflagichli qadimiy cholg'u qo'shmayni qo'sh qamishli cholg'uga o'xshatgan. Bunday qo'shnay, surnaylarga ham o'zbeklar mohirona jor bo'lganidan jor bo'lishganligi e'tirof etilgan. O'rta asrda yashab ijod etgan olim Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Katta musiqa kitobi"ning, ikkinchi bobida puflama musiqa asboblari jumladan, nay sozi haqida yozib, uni qamishdan yasalganligi to'g'risida fikr bildirdi. O'zbekiston hududida, jumladan Samarqand yaqinidagi Afrosiyob nomi bilan ataladigan qishloqda olimlar tomonidan arxeologik ishlar olib borilganda, u yerdan fleyta (nay) chalib turgan musiqachining haykalchasi topilgan.

O'rta asr miniatyuralarida esa nay xonaki xalq cholg'ulari ansambli tarkibidan o'rin olgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, fleyta ya'ni nay uzoq asrlardan buyon avloddan-avlodga o'tib kelgan cholg'udir. U O'zbekiston hamda Tojikistonda juda keng tarqalgan. Nayni buryatlar va mangollarda limba, Xitoyda esa li deb nomlashgan. Nay qamishdan, yog'ochdan, mis, bambuk singari matolardan yasaladi, shuning uchun ham - qamish nay, yog'och nay, mis nay deb nomlanib kelingan. Tuzilishi trubochka shaklida bo'lib, diametri 20-30 mm, uzunligi esa 450-520 mm. Nayning ustki qismida 6 ta teshigi bor.

An'anaviy o'zbek va tojik cholg'u ansambllari tarkibida nay yetakchi sozlardandir. Kuy boshlanadigan pardaga bog'liq holda nayga moslab boshqa asboblar sozlangan. Shuning uchun naydagi barmoqchalig'ich teshikchalar berkitilish soniga qarab milliy sozandalar orasida „besh qo'l“, „to'rt qo'l“, „uch qo'l“ deb nomlanuvchi sozlash turlari qo'llangan.

Hozirda nay asbobining o'rni yakkanavoz va jo'rnavoz soz sifatida yanada kengaydi, undan xalq cholg'u ansambllari va orkestrlarida foydalanishning yangicha usullari yuzaga keldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, "Nay" asbobi o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada nayning kelib chiqishi, tarixi va zamonaviy holati batafsil tahlil qilindi. Nayning o'ziga xos ovozi va ijro texnikasi unga xosligini belgilaydi. Bu asbob nafaqat musiqa ijrochilari, balki san'at ixlosmandlari orasida ham katta hurmatga ega. Mazkur maqolada keltirilgan ma'lumotlar asosida, nay asbobining o'zbek milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyati yana bir bor tasdiqlandi va uning rivoji va saqlanishi zarurligi ta'kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek xalq milliy cholg'u asbobi, san'ati va shukuxi. Ma'lumotlar bazasi: WWW.MALUMOT.RU
2. Abdullayev F., Til qanday rivojlanadi. Ziyozistagan qalblar uchun! - Kutubxona. Ziyouz.com
3. Rahmatullayev, A. (2005). O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Bobomurodov, B. (2011). O'zbek xalq musiqa asboblari. Toshkent: Sharq Nashriyoti.
5. Hasanov, R. (2018). Milliy musiqa cholg'ulari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.